



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025-yil 19-iyun, № 124 (9019)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## XALQIMIZ FAROVON SHAROITDA YASHASHGA MUNOSIB

Prezident Shavkat Mirziyoyev aholi hayoti, hududlarning iqtisodiy rivoji va yangi loyihalar bilan tanishish maqsadida 18-iyun kuni Toshkent viloyatining Parkent tumaniga tashrif buyurdi va "Toshkent-Sharqiy" aeroporti qurilishini ko'zdan kechirdi.



Mamlakatning barqaror rivojlanishi va uning xalqaro jozibadorligi oshishi bilan tashqi iqtisodiy aloqalar faollashib, investitsiyalar oqimi ko'paymoqda. Bunday sharoitda O'zbekistonda transport infratuzilmasining barcha yo'nalishini modernizatsiya qilishga o'shining asosiy omili sifatida ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Ana shunday strategik loyihalardan biri "Toshkent-Sharqiy" aeroportini rekonstruksiya qilishdir. U yuqori xalqaro standartlarga javob beradigan tez, xavfsiz va qulay qatnovlarni ta'minlash, shuningdek, poytaxtning asosiy xalqaro aeroportiga yuklamani yengillashtirishga mo'ljallangan.

Avvalo, 4 kilometr uzunlikdagi uchish-qo'nish yo'lagi yangilanib, eng og'ir samolyotlarni ham qabul qilish quvvatiga ega bo'ldi.

Hozirgi kunda yuqori martabali mehmonlar hamda biznes-aviatsiya uchun 2 ta terminal, perron va angarlar barpo etilmoqda. Aeroport noqulay ob-havo sharoitlarida ham uchish-qo'nishni ta'minlovchi ICAO III-A toifasidagi ilg'or radiotexnika va meteorologiya uskunalar bilan jihozlanadi. Yopiq angarlarda samolyotlar soz va xavfsiz saqlanishi uchun zamonaviy sharoitlar ta'minlanadi.

Mazkur aeroport qulay joylashuvi tufayli poytaxt va Yangi Toshkent shahri uchun muhim transport xabiga aylanadi, shuningdek, Toshkent viloyatida turizmni rivojlantirish uchun qo'shimcha rag'bat bo'lib xizmat qiladi. Eng muhimi, xalqaro tashriflar va ishbilarmonlik safarlarini

amalgam oshirish imkoniyatlarini kengaytadi, xorijiy investorlarni qabul qilish uchun sharoitlar yaxshilanadi. Natijada iqtisodiy faollik oshadi, xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi, mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligi sezilarli darajada oshadi.

Davlatimiz rahbari loyihaning texnik xususiyatlari, terminallarning arxitekturalari yechimi bilan tanishib, qurilish ishlarini jadallashtirish, servis darajasini oshirish bo'yicha aniq topshiriqlar berdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Parkent tumaniga tashrifini dastlabki manzili "Parkentsoy" turarjoy massivi bo'ldi.

Hududlarni "o'sish nuqtalari"ga tayanib rivojlantirish, aholiga munosib turmush sharoitlari yaratish — davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishi. Bunday o'zgarishlar Parkent tumanida ham namoyon.

Tuman markazidan oqib o'tuvchi Parkentsoy qirg'og'ida qurilayotgan ushbu massivni ekoshahar deiyish mumkin. Uning umumiy maydoni olti gektar bo'lib, jami 5 ming 200 xonadonli 125 ta ko'p qavatli turarjoy quriladi. Ular barcha zamonaviy kommunal tarmoqlar, energiya tejamkor texnologiyalar bilan ta'minlanadi. Jumladan, uylar tepasiga geokollektorlar o'rnatilib, suv isitishda foydalaniladi.

Aholi nisbatan zich yashaydigan hududlar uchun bunday massivlar muhim ijtimoiy ahamiyatga ega. Uylarning shinamligi va tannarxi xalqimizga mos.

Bu ayrim mahallalarda bir hovlida qisilishib yashayotgan oilalar uchun ayni muddao bo'ldi.

Davlatimiz rahbari Parkent tumanidagi Kumushkongacha bo'lgan o'znanlar tartibiga keltirilib, ochiladigan 100 gektar yerda turizm obyektlari tashkil etish rejalashtirilgan.

Prezidentimiz shu yerda parkentlik faollar bilan suhbatlashdi.

— Bizning eng katta boyligimiz yurtimiz tinchligi, xalqimizning osoyishtaligi. Tinchlik barqaror bo'lsa, mana shunday bunyodkorlik bo'ladi, rejalar amalga oshadi. Davlat tashkilotlarini safarbar qilib, imkoniyatlarni yuzaga chiqarib, hamma hududlarni rivojlantirishga harakat qilyapmiz. Parkentga ham istiqbol shabadasini, islohotlar natijasini yetib kelganini ko'rib, xursand bo'ldim. Xalqimiz mana shunday farovon sharoitda yashashga munosib, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Nuroniylar tuman rivoji uchun yaratilayotgan ulkan imkoniyatlar, aholi hayotida bo'layotgan o'zgarishlar, mehnatidan baxt topayotgan insonlar haqida so'zlandi.

Davlatimiz rahbari Parkent tumanidagi Kumushkongacha mahallasida bo'lib, sayohatlik salohiyati va mehmon uylarini ko'zdan kechirdi.

Bu sohaga ko'plab imtiyozlar berilib, tashabbuslar qo'llab-quvvatlanmoqda. Turizm qishloqlarida zarur infratuzilma tashkil etilyapti. Bu imkoniyatlardan foydalanib, xonadonlari mehmon uyi ochganlar talaygina.

Oxirgi yillarda Kumushkongacha sayyohlar kelishi ko'paygan. Bugungi kunda sakkizdan ortiq xonadonlarda mehmonxonalar tashkil etilgan. Ularda yiliga 172 ming nafar sayyohga xizmat ko'rsatilmoqda.

Shunday tadbirkorlardan biri Olim Yusupov soy bo'yidagi hovlisida 48 o'rinni mehmon uyi ochgan. Xonalar milliy uslubda, shinam qilib jihozlangan. Mehmon uyi yiliga 2 mingdan ziyod sayyohlarga xizmat ko'rsatadi.

Prezidentimiz bu yerdagi obodlik va omilkorlikni ko'rib, shunday loyihalarni boshqa so'lim maskanlarda ham tashkil etish kerakligini ta'kidladi. Tadbirkorlarga zarur mablag' ajratib, qo'shimcha xizmatlar tashkil etishga ko'maklashish bo'yicha mutasaddilarga ko'rsatma berdi. Mahallalarda ichki imkoniyatlarni yuzaga chiqarish aholini band qilishda katta mabta ekani qayd etildi.

Bu joylarga sayyohlar so'lim manzaralaridan bahramand bo'lish uchun keladi. Shuningdek, Masjidali ziyoratgohi

ham diqqatga sazovor joylardan biri. Toshkent viloyatida mingga yaqin shunday mehmon uylari bor. Ularda 2 ming 500 ta ish o'rni yaratilgan.

Prezidentimiz Parkent tumanidagi intensiv bog'da sarxil mevalar hosilini ko'zdan kechirdi.

"Meridian Tempo" korxonasi qarasli ushbu 54 gektar bog'da gilos, olma, nok va malinaning eksportbop navlari ekilgan. Ko'chatlar Fransiya va Ispaniyadan keltirilgan. Daraxtlar o'zini o'zi changlatish xususiyatiga ega. Bu hosildorlik yuqori bo'lishida muhim o'rin tutadi.

Zamonaviy agrotexnologik tizimlar orqali bog'da to'liq tomchilatib sug'orish joriy etilgan. Avval suv maxsus havzada to'planadi va tabiiy nishablik orqali sug'oriladi. Bunga energiya sarflanmay, natijada xarajat va mahsulot tannarxi kamayadi. Shuningdek, bog'da quyosh panellari o'rnatilgan.

Pishib yetilgan mevalar eksportga yo'naltirilmoqda. Bu yil 256 tonna gilos, 500 tonna olma, 480 tonna nok, 30 tonna malina yetishtirilishi mo'ljallangan. Eng muhimi, bundan keladigan daromad boshqa an'anaviy o'simliklarga nisbatan bir necha barobar yuqori.

Prezidentimiz mutasaddilarga bu usulni ommalashtirish, mevalarni parvarishlash va qadoqlash bo'yicha chet el tajribasini joriy etish yuzasidan ko'rsatmalar berdi.

Davlatimiz rahbari Parkent tumaniga tashrif davomida "Oltin bel" cho'qqisidagi dam olish maskani va yangi loyihalar bilan tanishdi.

Xushmanzara tog' bag'ridagi 3 gektar joyda qurilgan ushbu mehmonxonalar ixchamligi va hamyonbopligi bilan ajralib turadi. Hozirda jami 188 o'rinni 2 ta mehmonxonada, kapsula shaklidagi uylar, restoran va xo'jalik binolari barpo etilgan. Keyingi bosqichda yana 20 ta shunday uy qurilishi mo'ljallangan.

Shavkat Mirziyoyev mehmonxonada yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi.

Umuman, hududda turizmni rivojlantirish maqsadida qiymati 1 milliard 800 million dollar bo'lgan 52 ta loyiha amalga oshiriladi. Natijada 3 ming 300 ta ish o'rni yaratiladi va 1 million nafar sayyohga xizmat ko'rsatiladi.

Parkentning qorli tog'lari yana bir ulkan loyihani amalga oshirish imkonini bermoqda. Bu yerda Avstriya kompaniyasi tomonidan 1 ming 200 gektarda tog'-chang'i kurorti qurish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbariga ushbu loyiha haqida axborot berildi. Uning doirasida 3, 4 va 5 yulduzli mehmonxonalar, chang'i uchish va osma dor yo'li, shalelar, piknik maydoni, restoranlar, sog'lomlashtirish xizmatlari tashkil etildi.

Loyiha uch bosqichda amalga oshiriladi va to'liq quvvatda kuniga 15 ming nafar sayyohni qabul qilish

### "YO'L XARITASI" LOYIHASI MUHOKAMA QILINDI

Kecha Oliy Majlis Senatida "Mo'g'uliston — O'zbekiston" parlamentlararo do'stlik guruhi raisi Suxbaatar Erdenebat boshchiligidagi delegatsiya bilan onlayn uchrashuv bo'lib o'tdi.

#### Uchrashuv

Unda O'zbekiston va Mo'g'uliston o'rtasidagi do'stona munosabatlar mustahkamlanib borayotgani ta'kidlanib, ular tarixiy asoslarga ega ekanligi hamda o'zaro hurmat va ishonch tamoyillariga binoan rivojlanayotgani qayd etildi.

Shu bilan birga, O'zbekiston va Mo'g'uliston parlamentlararo do'stlik guruhlarining faoliyatining

samaradorligini oshirish hamda oliy darajada erishilgan kelishuvlar o'z vaqtida va sifatli bajarilishi usidan birgalikdagi parlament nazoratini yo'lga qo'yish yuzasidan atroflicha fikr almashildi.

Muloqotda 2025-2026-yillarga mo'ljallanayotgan parlamentlararo hamkorlik bo'yicha "Yo'l xaritasi" loyihasi ham muhokama qilindi va ushbu yo'nalishda aniq vazifalar belgilab olindi.

"Xalq so'zi".

### IQTISODIY HAMKORLIK UCHUN MUSTAHKAM ASOS

Qozog'istonning Ostona shahrida "Markaziy Osiyo — Xitoy" ikkinchi sammiti bo'lib o'tdi. Aytish kerakki, ushbu sammit erishilgan yutuqlar tahlili va mintaqa rivoji uchun navbatdagi "Yo'l xaritasi" belgilab olinishi nuqtayi nazaridan nihoyatda ahamiyatlidir.

Sir emas, Markaziy Osiyo geosiyosiy joylashuv borasida g'oyat muhim, ammo tarixan qiyin logistika sharoitiga ega mintaqadir. Dengizga chiqish yo'li bo'lmagan, relyefi murakkab va cho'llar bilan o'ralgan bu hududda transport tarmoqlari uzoq vaqt davomida yetarlicha rivojlanmagan. Sovet ittifoqi davrida qurilgan infratuzilma esa bugungi global savdo va tezkor yetkazib berish talablariga javob bermaydi.

O'zbekiston, Qozog'iston va

Qirg'iziston kabi mamlakatlar o'z tovarlarini eksport qilish uchun asosan temir yo'l, avtomobil yo'llari hamda neft-gaz quvurlariga tayanadi. Ammo bu infratuzilmaning uzoqligi va samarasizligi savdo xarajatlarini oshiradi, raqobatbardoshlikni pasaytiradi hamda mintaqadagi iqtisodiy integratsiya jarayonlarini sekinlashtiradi.

Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi aynan shu muammolar yechimi sifatida ko'rilmog'da.

Bu tashabbus doirasida Xitoy Markaziy Osiyo davlatlari bilan birgalikda strategik transport yo'laklarini yaratish va mavjudlarini modernizatsiya qilishga kirishdi.

So'nggi o'n yil ichida bu loyihalar nafaqat geografik aloqalarni yaxshiladi, balki mintaqalar o'rtasidagi ishonch va iqtisodiy sheriklikni ham mustahkamladi. Ular orasida eng katta va ramziy ahamiyatga ega bo'lgan loyiha — Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'li. 2024-yilda rasman qurilishi boshlangan ushbu temir yo'l loyihasi ko'p yillik muzokaralar, texnik va siyosiy kelishuvlar natijasidir. U Qirg'iziston orqali Xitoy to'g'ridan-to'g'ri O'zbekiston bilan bog'laydi.

#### Munosabat

### KENG IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLI TAKLIFLAR

Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlarini o'zaro hurmat, ishonch va o'zaro yordamga asoslangan ko'p asrlik do'stlik va sheriklik rishtalari bog'lab turadi. So'nggi yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlarining Xitoy bilan umumiy savdo aylanmasi o'sib borayotgani alohida e'tiborga molik.

Qozog'iston poytaxti Ostona shahrida bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo — Xitoy" ikkinchi sammitida davlatimiz rahbarining ishtiroki hamda ko'p tomonlama aloqalarni rivojlantirishga oid takliflari mintaqada davlatlari va Xitoy o'rtasidagi istiqbolli hamkorlikni rivojlantirishga kuchli turki beradi, desak, yangilshaymiz.

Binobarin, mazkur sammit doirasida Markaziy Osiyo mamlakatlarini bilan Xitoy o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy, energetika, transport, xavfsizlik va madaniy-gumanitar sohalaridagi strategik sheriklikni mustahkamlash masalalari

ko'rib chiqilib, mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb vazifalar muhokama qilindi.

So'nggi yillarda Markaziy Osiyo ochilayotgan imkoniyatlarini birgalikda oshirishga qodir bo'lgan yanada jips mintaqaga aylandi va "Markaziy Osiyo ruhi" paydo bo'ldi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining Xitoy bilan umumiy savdo aylanmasi joriy yilda 100 mlrd. dollarga yetdi. Qo'shma korxonalar va loyihalar soni 10 mingdan oshdi.

3

Senat qo'mitalarida



OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MASALASI – KUN TARTIBIDA

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi majlisi bo'lib o'tdi. Unda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun dastlabki tarzda muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, qishloq xo'jaligini rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, sohaga zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, ekspost salohiyatini oshirish bo'yicha keng ko'lami ishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, faoliyat olib borayotgan subyektlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoyasini yanada kuchaytirish zarurati yuzaga kelyapti.

Qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga, "Urug'chilik to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun dastlabki tarzda muhokama qilindi.

Ushbu qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, meva-sabzavotchilik sohasini davlat

toimonidan qo'llab-quvvatlash, agrar sohadagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining yaxlit tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Qo'mita tomonidan xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining Agrar, suv xo'jaligi va ekologiya masalalari bo'yicha doimiy komissiyalari a'zolari uchun seminar ham o'tkazildi.

Seminarda dorivor o'simliklarni yetishtirish, qayta ishlash, ularning ekspost hajmini kengaytirish, ularga kvota ajratish hamda sohada ilmiy tadqiqotlar olib borish masalalari muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, mamlakatimizda bu borada tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "bir tuman – bir mahsulot" tamoyili asosida dorivor o'simliklarni yetishtirishga ixtisoslashtirilgan 73 ta tumanida 2024-yilda 22,3 ming gektar maydonda 100 turdan ortiq dorivor o'simliklar xomashyosi tayyorlangan. Xitoy Xalq Respublikasiga dorivor o'simliklarni ekspost qilish bo'yicha fitosanitar ruxsatnoma olingan hamda 71 ekspostyor korxonaga ekspost qilish reestrga kiritilgan.

Seminarda amalga oshirilayotgan ishlar bilan birga dorivor o'simliklarning davlat kadastriga to'laqonli yunitilayotgani, sohada ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda ularning natijalarini tijoratlashtirish, dorivor o'simliklar xomashyosi hamda ulardan olinadigan mahsulotlarni sertifikatlash va standartlashtirish laboratoriyalarini tashkil etish kabi masalalarga e'tibor qaratish lozimligi qayd etildi.

"Xalq so'zi".

VOYAGA YETMAGANLAR MANFAATLARINI IFODALOVCHI HUJJAT

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi majlisida "Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoiy javobgarlik yanada liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoiyat kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi.

Ma'lumki, jinoiyat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning javobgarligi, ularga nisbatan jazo turlari va me'yorlari, jazo tayinlash, javobgarlik va jazodan ozod qilishning alohida tartibi belgilangan. Biroq qonunchilikda voyaga yetmagan shaxslarning, jumladan, shaxsning voyaga yetmagan davrida sodir etgan jinoiyati uchun sudlanganligining tugallanishiga oid alohida norma mavjud emas. Shu bois bugungi kunda shaxsning voyaga yetgunga qadar sodir etgan jinoiyati uchun sudlanganlikning tugallanishi umumiy normalarga asosan hisoblanmoqda.

Vaholanki, xalqaro umume'tirof etilgan normalarda voyaga yetmaganlarning jinoiy javobgarligini boshqa shaxslarga nisbatan yengilroq shaklda belgilash ko'rsatilgan bo'lsa, ayrim chet davlatlar qonunchiligida shaxsning voyaga yetgunga qadar sodir etgan jinoiyati uchun sudlanganlik muddatini hisoblashga oid alohida norma belgilangan.

Yuqoridagi umume'tirof etilgan tamoyillardan kelib chiqib, mazkur qonun bilan Jinoiyat kodeksining bir qator moddalariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Jumladan, o'n sakkiz yoshga

to'lguniga qadar sodir etgan o'ta og'ir bo'lmagan jinoiyati uchun jazoni o'tab bo'lgan shaxs sudlanmagan, deb hisoblanishi belgilanmoqda. Shuningdek, qonunda voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikni cheklashning hamda ozodlikdan mahrum qilishning eng kam muddati olti oydan bir oygacha qisqartirilishi nazarda tutilmoqda.

Ushbu qonun voyaga yetmaganlarning jinoiy javobgarligini yanada liberallashtirishga xizmat qiladi va o'n sakkiz yoshga to'lguniga qadar sodir etgan jinoiyati uchun jazoni o'tab bo'lgan shaxsga hayotini sudlanganlik tamg'asidan xoli tarzda davom ettirish uchun sharoit yaratadi.

Bundan tashqari, qo'mita kun tartibi doirasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga voyaga yetmagan bolalarning ta'minoti uchun aliment undirish va to'lash tizimini takomillashtirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar yuzasidan yuboriladigan parlament so'rovi loyihasi ham ko'rib chiqildi.

Muhokama etilgan masalalar bo'yicha qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

DORIVOR O'SIMLIKLARNI YETISHTIRISH HOLATI QANDAY?

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi a'zolari Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash ilmiy-ishlab chiqarish markazi faoliyati bilan tanishdi.

O'rganish

Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashga doir olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, xorijiy davlatlarning ilg'or ilmiy ishlanmalarini tahlil qilish, zamonaviy texnologiyalar, ilmiy ishlanmalarni joriy etish, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish maqsadida tashkil etilgan o'rganishda dastlab mazkur markazda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, laboratoriya xodimlari, ilmiy tadqiqotchilar bilan muloqot uyushtirildi.

Muloqot chog'ida ta'kidlanganidek, markazda dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, yovvoyi dorivor o'simliklar areallarini o'rganish hamda zaxiralarni aniqlash, onalik plantatsiyalarini tashkil

etish ishlari olib borilmoqda. Madaniy holda yetishtiriladigan 34 turdagi dorivor o'simlikning agrotexnologik xaritalari ishlab chiqilgan. Markazning dorivor o'simliklar introduksiyasi va agrotexnikasi laboratoriyasi ilmiy xodimlari tomonidan hududlardagi o'rmon fondi yerlarida dorivor o'simliklarning areallari va zaxiralari aniqlanib, elektron xaritalari yaratilgan.

Bundan tashqari, dorivor o'simliklarning turlari, navlari introduksiyasi qilinib, iqlimlashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu maqsadda Toshkent viloyatining Piskent tumanidagi tajriba uchastkasida dorivor o'simliklar 60 dan ortiq turlarining seleksion va kolleksion ko'chatzorlari tashkil etilgan.

O'rganish jarayonida mutaxassislar tomonidan amaliyotdagi muammolar va

ularning yechimi bo'yicha takliflar ham bildirildi.

Jumladan, dorivor o'simliklarni tadqiq qilish imkoniyatini kengaytirish maqsadida Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan respublika ilmiy tashkilotlarining tadqiqot yo'nalishlari bo'yicha shakllangan ro'yxatga markazni kiritish bo'yicha takliflar bildirildi. Shuningdek, mavjud resurslardan oqilona, ilmiy va ekspostga yo'naltirilgan imkoniyatlardan to'laqonli foydalanishni ta'minlash maqsadida dorivor o'simliklar xomashyosi hamda ulardan olinadigan mahsulotlarni sertifikatlash va standartlashtirish laboratoriyasini tashkil etish lozimligi ham ta'kidlandi.

O'rganish doirasida dorivor o'simliklarni yetishtirish, xomashyosini qayta ishlash va mahsulotlar eksposti bilan shug'ullanuvchi "Paradise flora" mas'uliyati cheklangan jamiyati faoliyati bilan ham yaqindan tanishildi.

"Xalq so'zi"

Senatorlar – hududlarda

MUROJAATLAR KO'RIB CHIQUILDI

Oliy Majlis Senatida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o'rganish, aholi bilan ochiq muloqot o'tkazish, mavjud muammolar hamda ularni hal etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Ushbu yo'nalishda Senat qo'mitalari, senatorlar va tegishli idoralar hamkorligida joylarda sayyor qabullar tashkil qilish amaliyoti keng yo'lga qo'yilgan.

Shu maqsadda Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi A. Eshmuratov boshchiligida Surxondaryo viloyatining Shor'ochi tumanidagi Xushchekka, Ozod, Ezgulik, Yakkabog', Oqqo'rg'on va Jarqishloq mahallalarida sayyor qabul o'tkazildi.

Qabulda 125 nafar fuqaroning 130 ta masala bo'yicha bildirgan murojaatlari, taklif hamda muammolari tinglandi. 28 nafar fuqaroning murojaatlari senator va ishchi guruh tomonidan shu yerning o'zida ijobiy hal qilindi. Qolgan murojaatlar tegishli ijro organlariga yuborildi va ularning ijrosi nazoratga olindi.

Murojaatlarda ko'tarilgan masalalar, asosan, ichimlik suvi bilan ta'minlash, eski elektr tarmoqlarini yangilash, transformator o'rnatish, ichki yo'llarni ta'mirlash, tibbiy yordam ko'rsatish kabi dolzarb yo'nalishlarga taalluqli edi.

"Xalq so'zi".

MUXOLIFAT FRAKSIYASI QONUN LOYIHASIGA E'TIROZ BILDIRD. NEGA?

Kuni kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida qator qonun loyihalari deputatlar tomonidan ko'rib chiqilgandi. Qizg'in munozaralar, tortishuvlar ruhida o'tgan majlisda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga tafovut hamda ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi qizg'in muhokamalarga sabab bo'ldi. Parlamentdagi muxolifat – O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi ushbu qonun loyihasi tashabbuskorlariga jiddiy e'tiroz bildirdi.

O'zgacha fikr

"Xalq so'zi" muxbiri mazkur masala yuzasidan Qonunchilik palatasidagi O'zXDP fraksiyasining ijrochi kotibi Jahongir KABIRJONOV fikrlari bilan qiziqdi.

– Ochig'ini aytish kerak, keyingi paytlarda qonun loyihalari muhokamalarida siyosiy partiyalar fraksiyalarining qat'iy pozitsiyasini ko'rish mumkin. O'zXDP fraksiyasi esa parlamentdagi muxolifat sifatida har bir masalaga tanqidiy va o'ta talabchanlik bilan qaraydi.

Kuni kecha yalpi majlisda fraksiya muxolifat sifatida yana bir muhim qonun loyihasiga o'z qat'iy pozitsiyasini bildirdi. Albatta, bundan xabaringiz bor. E'tiroz shunchaki bo'lgani yo'q, har tomonlama asosli bo'ldi. Bungacha qonun loyihasi fraksiya yig'ilishida batafsil ko'rib chiqilgandi. Uzoq davom etgan muhokamalarda ko'plab masalalarga oydinlik kiritish kerakligi ta'kidlangan bo'lib, deputatlar bu borada o'z takliflarini bildirgan edi. Qolaversa, Qonunchilik palatasi Kengashi yig'ilishida ham ushbu loyiha yuzasidan e'tiroz bildirilgandi. Palata majlisida esa fraksiyamiz rahbari Ulug'bek Inoyatov fraksiyaning e'tirozini bayon qildi.

Fraksiya rahbari, avvalo, qonun loyihasing nomi uning konsepsiyasi va mazmuniga mos kelmasligiga e'tibor qaratdi. Shuningdek, tizimli yondashuv yo'lga qo'yilmagani hamda sohalar bo'yicha pala-partish tahlil qilinganini qayd etdi. Masalan, o'zaro mantiqiy bog'liq bo'lmagan iqtisodiy qonunchilikka, sud-huquq, sanoat, ijtimoiy sohadagi bir qator qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilgan hamda qonun nomida ko'rsatilganidek ziddiyatlar emas, muvofiqlikka urg'u berilgan.

Fraksiya fikriga ko'ra, bu qonun ijodkorligi nuqtayi nazaridan loyihani sifatli muhokama qilishda noqulayliklarni yuzaga keltiryapti. Qonunning bu shaklda qabul qilinishi uni amalda tatbiq etishda ham murakkabliklar keltirib

chiqarishi mumkin. Bundan tashqari, qonun loyihasing muqaddimasiga e'tibor beriladigan bo'lsa, u yerda maqsad-vazifalar to'liq aks ettirilgan. Fraksiyamiz rahbari mana shularni inobatga olgan holda loyiha matnini maromiga yetkazib, keyin qayta kiritish kerak degan fikrni bildirdi.

Qonun loyihasiga mas'ul bo'lgan adliya vaziri o'rinbosari Alisher Karimov bildirilgan e'tirozlar o'rinli ekanini ta'kidlab, qonun loyihagini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida fraksiya bergan taklif hamda tavsiyalar inobatga olinishi va loyiha takomillashtirilishini qayd etdi.

Qonun loyihasi 13 ta qarshi ovoz bilan birinchi o'qishda qabul qilingani unda masalalar ko'pligini bildiradi. Qonun tashabbuskorlari bundan to'g'ri xulosa chiqarishlari maqsadga muvofiq.

Adliya vaziri o'rinbosarining va'dasi shunchaki minbarda aytilgan gap bo'lib qolmasligi uchun fraksiyamiz a'zolari qonun loyihagini ikkinchi o'qishga tayyorlash muhokamalarida faol ishtirok etadi. Qolaversa, bildirilgan har bir taklifning inobatga olingan yoki olinmagani diqqat markazimizda bo'ladi. Mabodo buning aksi bo'lsa, fraksiya hech shubhasiz, qonun loyihasiga qarshi ovoz beradi.

Agar e'tibor bersangiz, yalpi majlisda fraksiya a'zolari boshqa yo'nalishlardagi qonunlarda ham tafovutlar borligi, ularni tezroq bartaraf etish lozimligini ta'kidladi. Shu bilan birga, deputatlar bunday tashabbuslarni ko'lab-quvvatlashini bildirib, yordamga tayyorligini ma'lum qildi.

Bu bejiz emas. Chunki har bir qonun o'zining, xalqchil, tushunarli bo'lishi zarur. Shundaygina siz u buning hayotimizda huquqlarimiz to'la-to'kis kafolatlanadi, har xil qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar, nomuvofiqliklarga o'rin qolmaydi. Zero, O'zXDP muxolifat sifatida ijtimoiy tenglik, aholi manfaatlarini himoyalash, davlat organlari faoliyatining ochiqchiliga xizmat qiluvchi qonunlarni ko'lab-quvvatlashni o'zining ustuvor vazifasi, deb biladi.

Aks sado

QUYI BO'G'IN – O'ZGARISHLARNING MUHIM POYDEVORI

Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning natijadorligi, hududlardagi ishlar holati va aholi farovonligini ta'minlash yuqoridan beriladigan yo'l-yo'riqlar qonun-qoidalarga emas, to'g'ridan-to'g'ri quy bo'g'in rahbarlarining tashabbuskorligi va omilkorligiga bog'liq. Prezidentimiz raisligida 16-iyun kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida ham tuman darajasidagi boshqaruv tizimi va uning muammolariga alohida e'tibor qaratildi. Zero, tuman xalqqa eng yaqin ma'muriy bo'g'in bo'lib, fuqarolarning kundalik muammolari, ehtiyoj va intilishlari shu yerda namoyon bo'ladi. Agar aynan shu bo'g'in tizimli, shaffof va samarali ish tashkil etilsa, markazda qabul qilinayotgan har qanday islohot xalq hayotida sezilarli o'zgarishga sabab bo'ladi.

Yig'ilishda qayd etilganidek, tumanlar darajasida kadrlar qo'nimsizligi yuqori darajada. Buning asosiy sababi tumanlardagi xodimlar maoshi respublika tashkilotlari bilan taqqoslaganda 3-4 barobar kam. Natijada yuqori malakali kadrlar tumanlarda uzoq muddat faoliyat yuritishga qiziqish bildirmaydi. Bunday holatda kadrlar malakasining yetishmasligi nafaqat boshqaruv sifatini pasaytiradi, balki islohotlarning mahalliy darajada samarali ijrosiga ham to'siq bo'lmoqda.

Ayni paytda har bir tuman hokimiga 500 ga yaqin vazifa yuklatilgan. Lekin ko'pgina rahbarlar bu vazifalarning yarmidan ko'pini yetarlicha bilmaydi. Nega? Sababi ish vaqtining ma'lum bir qismi turli yig'ilish va majlislariga sarflanayotganidir. Bu esa ularning asosiy vazifasi – joylardagi muammolarni aniqlash va yechim topish, iqtisodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishga to'siq qilmoqda.

Buning ustiga tuman rahbarlarining "qo'li bog'liq" holda

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida



MAHALLA – JAMIYAT KO'ZGUSI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi hamda Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo'mitasi tomonidan "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini mustahkamlashda parlamentning o'rni" mavzuida davra suhbatlari o'tkazildi.

Deputatlar, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston mahallalari uyushmasi vakillari, mahalla fuqarolar yig'inlari raislari hamda Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari ishtirok etgan tadbirda mamlakatimizda mahalla institutini aholiga eng yaqin va xalqchil tuzilmaga aylantirish, uning jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlash, moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilayotgani ta'kidlandi.

Keng ko'lami tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar, mahallaga qo'shimcha kuch va imkoniyatlar berilayotgani, vakolat, mas'uliyat ham quyi tizimga tushirilayotgani natijasida u har bir oila, har bir inson muammosi, dardu tashvishiga chuqur kirib bora oladigan xalqchil tuzilma sifatida yanada faollashganiga urg'u berildi.

So'z olganlar xalq vakillari saylov okruglarida o'z faoliyatini olib borish jarayonida ham mahalla bilan yaqindan hamkorlik qilishi kerakligini, mazkur tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsad ham deputatlar va mahalla kuchaytirish, mahallaning xalq bilan davlat o'rtasidagi "ko'pri" vazifasini amalga oshiruvchi mustaqil va xalqchil tuzilmaga aylantirishdan iborat ekanini qayd etishdi.

Tadbirda aholi byudjet mablag'larini aniq talab va ehtiyojlardan kelib chiqqan holda taqsimlashda bevosita qatnashib, o'zlarining muammolarini mustaqil hal qilish maqsadida tashkil etilgan "Mahalla byudjeti" tizimiga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, 2024-yil yakuni bilan

Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg'armasida 382,7 mlrd. so'm mablag'lar, bunda mol-mulk va yer solig'ining bir qismi jamg'armalarga yo'naltirilishi hisobiga mahallalarda o'tacha 35 – 40 mln. so'mdan mablag'lar shakllangani aytib o'tildi.

O'tgan yilda jami 210,2 mlrd. so'm xarajatlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, juda ko'plab MFYda xarajatlarning asosiy qismi mahalla idoralari uchun hijozlar xarid qilish, binolar qurish va ta'mirlash uchun yo'naltirilgani deputatlarning e'tiroziga sabab bo'ldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mahalla byudjet tizimida olib borilayotgan ishlarni takomillashtirish, aholi talabidan kelib chiqqan holda mahallani muammolarni mustaqil hal etadigan tizimga aylantirish bo'yicha zarur tavsiyalar berildi.

Shu bilan birga, MFYda mehnat migrantlari to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lish maqsadida idoralararo integratsiyalashuvni joriy qilish, ajrimlar sonini kamaytirish uchun nikoh to'g'risidagi guvohnoma rasmiylashtiruviga qadar nikohlanuvchi yoshlar bilan dastlabki suhbatlar o'tkazish, xotin-qizlar faoli ishi samaradorligini oshirish bo'yicha qator takliflar ilgari surildi.

Tadbir yakunida ko'tarilgan masalalar, taklif va tavsiyalar asosida O'zbekiston mahallalari uyushmasi tizimi bilan ishlarni izchil tashkil etish, deputatlarning mahallalardagi faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha maslahatlashuvlarni davom ettirishga kelishib olindi.

"Xalq so'zi".

ODAM SAVDOSIGA QARSHI KURASHISHDA XALQARO TAJRIBA

16-17-iyun kunlari Toshkent shahrida aholining zaif qatlamlaridagi shaxslarga nisbatan odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha trening bo'lib o'tdi.

Tadbir

Tadbir Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo'yicha milliy komissiya, Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili, YXHTning Odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha maxsus vakili va muvofiqashtiruvchi byurosi bilan hamkorlikda tashkil etildi.

Trening 2023-2024-yillarga mo'ljallangan O'zbekistonda YXHT loyihalari amalga oshirish bo'yicha tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"ni amalga oshirish hamda "O'zbekistonda odam savdosiga qarshi kurashishning milliy institutsional asoslarini yanada rivojlantirishga ko'maklashish" loyihasi doirasida o'tkazildi.

Asosiy e'tibor zaif guruhlarni uchun odam savdosining ortib borayotgan xavf-xatarlari hamda odam savdosiga qarshi kurashning zamonaviy usullarini amaliyotga joriy etish, shuningdek, o'zaro tajriba almashish uchun platforma yaratish masalalariga qaratildi.

Tadbirda odam savdosiga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro va ilg'or tajribalar o'zaro o'rtoqlashildi, shuningdek, ishtirokchilar odam savdosining gender jihatlari va psixologik oqibatlarini tahlil qilishga asoslangan yondashuvlar bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Interaktiv sessiyalar, guruh muhokamalari, amaliy topshiriqlarni o'z ichiga olgan mazkur trening samarali usulda odam savdos holatlarining oldini olish, undan jabrlanganlarni himoyalash bo'yicha zarur bo'lgan barqaror bilimga ega bo'lish hamda ishtirokchilarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishiga xizmat qildi.

"Xalq so'zi".

Davlat xaridlarini amalga oshirishda "yashil" davlat xaridlari tizimi joriy etiladi.

## Муносабат

## IQTISODIY HAMKORLIK UCHUN MUSTAHKAM ASOS

Ahamiyatli, loyiha uch davlat uchun ham birdek muhim. Xususan, Xitoy uchun Yevropaga chiqishning yana bir qisqa, xavfsiz va samarali yo'li bo'lsa, Qirg'izistonga tranzit salohiyati orqali iqtisodiy faolligni oshirish imkoniyatidir. O'zbekistonga esa dengizga chiqmasdan turib, xalqaro bozorlarga to'g'ridan-to'g'ri yetishish imkonini beradi.

Bundan tashqari, bu yo'l Yevropa va Xitoy o'rtasidagi temir yo'l yo'lagini 900 kilometrqa qisqartiradi, yetkazib berish vaqtini kamida 7 kunga kamaytiradi va logistika xarajatlarini 30 – 40

foizgacha tushiradi.

Mazkur yo'l nafaqat uch davlat, balki butun Markaziy Osiyo uchun transport jihatdan yangi imkoniyat eshigini ochadi. Har bir yangi temir yo'l stansiyasi va logistika markazi mahalliy iqtisodiyot, ish o'rinlari va savdo aylanmasining o'sishi, demakdir. Ushbu tarmoq Turkmaniston, Tojikiston va Ozarbayjon kabi hududlarni ham global yo'laklarga bog'lashi mumkin.

Shuni aytish kerakki, bu kabi aloqalar mintaqadagi iqtisodiy integratsiyani kuchaytirib, davlatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni oshiradi. Xavfsizlik, barqarorlik

va siyosiy hamkorlik uchun mustahkam asos yaratadi.

Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston temir yo'li shunchaki logistika loyihasi emas, balki mintaqadagi geosiyosiy vektorni belgilaydigan yo'nalish hisoblanadi. U Markaziy Osiyoni global aloqalar markaziga aylantirish sari tashlangan muhim qadam bo'lishi bilan ham ahamiyatli.

**Kobuljon TURSUNOV,**  
Oliy Majlis Senatining  
Byudjet va iqtisodiy  
masalalar qo'mitasi raisi  
o'rinbosari.



## KENG IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLI TAKLIFLAR

Bunga sabab bir tomondan ishonch, yaxshi qo'shniçilik va sheriklik makoniga aylangan Markaziy Osiyoning o'zidagi chuqur transformatsiya jarayonlari bo'lsa, boshqa tomondan, Xitoy rahbariyatining qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlarni rivojlantirish hamda "Belbog' va yo'l" global konsepsiyasini ilgari surishga qat'iy sodiqliq hamkorlikning rivojlanishida asosiy omil bo'ldi.

Ma'lumki, Xitoyning O'zbekiston umumiy savdo aylanmasidagi ulushi 2024-yilda 18,9 foizni, importdagi ulushi 26,8 foizni va eksportdagi ulushi 7,6 foizni tashkil etdi. 2017 – 2024-yillarda O'zbekistonning Xitoy bilan tovar ayirboshlash hajmi 2,6 barobar, 4,8 mlrd. dollardan 12,5 mlrd. dollarga oshgan. Ayni davrda eksport 2,03 mlrd. dollardan 2,05 mlrd. dollargacha, ya'ni 1,5 foiz o'sdi. Import esa 2,7 mlrd. dollardan 10,4 mlrd. dollargacha, ya'ni 3,8 barobar ko'paydi.

Xitoyning ilg'or tajribasi asosida mamlakatimizda sanoat salohiyati va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish, hududlarimizda ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan ko'plab loyihalar amalga oshirilmoqda.

2024-yil holatiga ko'ra, Xitoydan Markaziy Osiyo mamlakatlariga yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va kreditlarning umumiy hajmi 24 mlrd. dollardan oshgan. Xitoy investitsiyalarining katta qismi Qozog'istonga (15,5 mlrd. dollar) va O'zbekistonga (7,2 mlrd. dollar) to'g'ri keladi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining o'sib borayotgan salohiyati va Xitoyning sanoat sohasidagi yetakchiligini birlashtirish bilimlar bilan almashish va texnologiyalar transferining samarali mexanizmlariga ega bo'lgan umumiy keng imkoniyatlar makoni paydo bo'lishiga olib keladi. Yangi iqtisodiy sheriklik dasturining qabul qilinishi

ushbu yo'nalishda yana bir amaliy qadam bo'ladi.

Prezidentimiz tomonidan ushbu dasturni aniq vazifalar bilan to'ldirish, o'zaro savdo va investitsiyalarni kengaytirish bo'yicha loyihalar portfelini shakllantirish uchun bosh vazir o'rinbosarlari darajasida Savdo va investitsiyalar bo'yicha mintaqalararo kengash ta'sis etish taklifi ilgari surildi va uning birinchi uchrashuvini shu yil oxiriga qadar O'zbekistonda o'tkazish taklif etildi.

Sanoat sohasidagi va infratuzilmaviy bog'liqlikning kuchayishi mamlakatlarimiz iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish imkonini beradi. Shu maqsadda "Markaziy Osiyo – Xitoy" sanoat va infratuzilmaviy belbog'ini yaratishga qaratilgan uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqish taklif etildi. Bu esa Xitoyning investitsiyalari, texnologik va ilmiy yechimlarini jalb etgan holda o'zaro bog'liq sanoat klasterlari, texnoparklar va logistika xabarlari tizimini yaratish imkonini beradi.

Sammitda transport va tranzit yo'laklarini diversifikatsiya va infratuzilmani modernizatsiya qilish, sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish va qo'shma texnologik loyihalarni amalga oshirish, raqamli texnologiyalar, "yashil" energetika va oziq-ovqat xavfsizligi sohasida ilmiy tadqiqot aloqalarini kengaytirish, yoshlar, ta'lim va madaniyat almashinuvlarini kuchaytirish yo'nalishlarida ham takliflar ilgari surildi.

Umuman, "Markaziy Osiyo – Xitoy" mexanizmi hamkorlikning yangi modeli bo'lib, bu format xalqaro hamjamiyatga mintaqaviy xavfsizlik va barqaror rivojlanishni namoyish etish bilan birga, jahon iqtisodiyoti rivojiga o'z hissasini qo'shadi.

**Dilbar MAMAJONOVA,**  
Oliy Majlis  
Qonunchilik palatasi  
deputati.

## BARQAROR TARAQQIYOT VA O'ZARO SHERIKLIKNING YANGI DAVRI

17-iyun kuni Ostona shahrida bo'lib o'tgan sammitda Markaziy Osiyo mamlakatlari va Xitoy o'rtasidagi aloqalarda yangi sahifa ochildi. "Markaziy Osiyo – Xitoy" formatidagi ushbu sammit mintaqaviy sheriklikni chuqurlashtirish va strategik hamkorlikni mustahkamlashda muhim qadam bo'ldi.

Sammitning eng muhim natijalaridan biri – mamlakatlar o'rtasida Abadiy yaxshi qo'shniçilik, do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomaning qabul qilinishi bo'ldi. Bu tarixiy hujjat mintaqadagi davlatlar va Xitoy o'rtasidagi munosabatlarning kelgusi rivoji uchun mustahkam asos yaratadi.

Davlatimiz rahbari sammitda Markaziy Osiyo mamlakatlarining Xitoy bilan umumiy savdo aylanmasi izchil o'sib borayotganini ta'kidladi. Joriy yilda bu ko'rsatkich 100 mlrd. dollarga yetishi kutilmoqda, qo'shma korxonalar va loyihalar soni esa 10 mingdan oshadi. Mazkur raqamlar hamkorlikning naqadar jadal rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Shartnomani amaliy jihatdan mustahkamlash maqsadida Uzoq muddatli sheriklik konsepsiyasini qabul qilish muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etildi. Shuningdek, yangi iqtisodiy sheriklik dasturining tezroq qabul qilinishi bu yo'nalishda yana bir amaliy qadam bo'ladi. Ushbu dasturni aniq vazifalar bilan to'ldirish, o'zaro savdo va investitsiyalarni kengaytirish bo'yicha loyihalar portfelini shakllantirish uchun mamlakatlar bosh vazir o'rinbosarlari darajasida Savdo va investitsiyalar bo'yicha mintaqalararo kengash ta'sis etish taklif qilindi. Uning birinchi uchrashuvini joriy yil oxiriga qadar

O'zbekistonda o'tkazishga tayyorlik bildirildi.

Savdo aloqalarini rag'batlantirish maqsadida "Raqamli makon va yo'l" doirasida "Raqamli lpak yo'li" ko'p tomonlama savdo platformasini tashkil etish tarafdorligi aytili. Shuningdek, biznes, yetakchi tadqiqot institutlari va muhandislik markazlarini jalb etgan holda texnologiyalar transferi bo'yicha alohida "Yo'l xaritasi"ni qabul qilish taklif etildi.

Energetika sohasida Markaziy Osiyo mamlakatlari va Xitoy energetika tizimlarini bog'lash, jumladan, yuqori kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlarini qurish bo'yicha megaloyihalarni amalga oshirish masalalarini chuqur o'rganish zarurati qayd etildi. Infratuzilmalarni rivojlantirishda kapital qo'yilmalar taqchilligini hisobga olgan holda (bir necha 100 mlrd. dollar atrofida baholannmoqda), "Markaziy Osiyo – Xitoy" taraqqiyot jamg'armasini ta'sis etish imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

Transport sohasida Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston temir yo'li qurilishining boshlanishi Yevroosiyo makonida yangi transport va tranzit kommunikatsiyalari tizimining muhim elementi sifatida e'tirof etildi. Logistika infratuzilmasini o'rganish, muqobil yo'laklar bo'yicha sinov loyihalarini amalga oshirish va ekspertlar guruhini shakllantirish e'tibor markazida bo'ldi. Bu yerda aniq hamda

asoslangan takliflar ishlab chiqilsa, transport yo'laklari va zamonaviy tranzit infratuzilmalarining yagona xaritasini shakllantirish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Madaniy almashuv va hamkorlikni rivojlantirish maqsadida "lpak yo'li madaniy merosi" yagona raqamli portalini yaratish taklifi bildirildi. Bu Markaziy Osiyo va Xitoyning madaniy boyliklarini birlashtirib, keng foydalanish imkonini yaratadi. Professional ta'lim sohasida hamkorlik dasturlarini ishlab chiqish, universitetlar rektorlari forumlarini o'tkazish, ilmiy akademiyalar va ilmiy-tadqiqot markazlari rahbarlari uchrashuvlarini tashkil etish orqali umumiy ilmiy-ta'lim platformalarini shakllantirish maqsadga muvofiq, deb topildi.

Sammitda Afg'oniston muammosiga xalqaro e'tiborning kamayishi jiddiy xavotir uyg'otayotgani qayd etildi. Chunki u Markaziy Osiyoning tarixiy-madaniy va iqtisodiy makonining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu munosabat bilan Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlari doirasida Afg'onistonning tiklanishi va integratsiyasiga ko'maklashish uchun Termizda yuqori darajadagi guruh yig'ilishini tashkil qilish taklif etildi.

"Markaziy Osiyo – Xitoy" ikkinchi sammiti mintaqaviy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi va uzoq muddatli strategik sheriklik uchun mustahkam zamin yaratdi. Qabul qilingan qarorlar va ilgari surilgan tashabbuslar mintaqaning barqaror rivojlanishi hamda farovonligiga xizmat qiladi.

**Ziyodbek YUNUSOV,**  
Oliy Majlis Qonunchilik  
palatasi deputati.

## KO'RSATKICH QOG'OZDA EMAS, NATIJADA AKS ETISHI KERAK

16-iyun kuni Prezidentimiz raisligida o'tgan yig'ilishda ko'tarilgan masalalar mahalliy davlat hokimiyati organlaridagi bugun yechimini kutayotgan muammolarga qaratildi. Xususan, unda har bir tumandagi 40 dan ziyod tashkilotlarda o'rtacha 500 nafar xodim ishlashi, lekin ayrim oddiy masalalarni hal qilish uchun ham viloyatdan, ular esa respublikadan ruxsat olishi kerakligi yoki vakolati va mablag'i yetarli bo'lgan tashkilotlar o'zini "nazoratchi" deb bilib, aholining og'irini yengil qilish bilan shug'ullanmayotgani ta'kidlandi.

Haqiqatan ham, ayrim holatlarda tuman rahbarlari joylarda viloyat, respublika darajasida yechiladigan masalalarni viloyatdagi rahbariga ayta olmaydi. Respublika darajasidagi rahbaridan esa masalani yashirishga, "muammo chiqarmaslik"ka harakat qiladi. Oqibatda oddiy masalalar ham yillar davomida hal etilmay qolaveradi.

Vaziyatni kuzatar ekanmiz, nima uchun har bir masala, har bir holat, har bir jarayon bo'yicha yuqoridan ruxsat olinishi kerak, axir tuman darajasidagi rahbarlar ham belgilangan tartibda, tavsiyalar,

suhatlar asosida vakolatli shaxslar tomonidan lavozimga tayinlanadiku, ular ham munosiblar orasidan saralab olinadi-ku, shunday ekan, nimaga ularga ishonch bildirilmayapti, vakolat berilmayapti, degan qator savollar tug'ilardi. Yig'ilishda aynan ushbu masalalar xususida to'xtalib o'tildi va huquqiy yechimlari haqida so'z borib, hokimlarning vakolatlari yanada oshirilishi belgilandi.

Davlatimiz rahbarining "tuman hokimlari ularga 100 dan ortiq qonun va qarorlar bo'yicha 500 ga yaqin funktsiya yuklatilgan bo'lsa-

da, yarmidan ko'pini bilmaydi. Kompleks rivojlantirishga mas'ul idoralar faqat kundalik topshiriqlarni bajarish bilan band", degan fikrlari ayni haqiqat.

Afsuski, bugun kundalik vazifalarga ko'p vaqt sarflayapmiz. Natijada aholini kambag'allikdan chiqarish, bandligini ta'minlash, turmush darajasini oshirish, hududga investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlikni rivojlantirish masalalariga e'tibor susayishi barobarida aholining sog'ligi, milliy genofond, ta'lim-tarbiya, ma'naviyat-mar'ifati masalalariga vaqt yetmay qolayotganga o'xshaydi.

Ayrim holatlarda uzoqni ko'zlab "rejali, tizimli ish tashkil etish" bilan "qog'ozbozlik" jumlarini farqlamayapmiz. Go'yoki, masalalar yechimi yuzasidan rejalar tuzish, ishlarni tizimlashtirish, muammoning vaqtinchalik yechimini tezkorlik bilan izlab topish amaliy natijadek bo'lib qolmoqda. Hokimliklarga biror dolzarb masala yuzasidan aloqa xati yuborsang,

javobini vaqtda ololmasligidan xavotirlanasan, kishi.

Har bir murojaat ortida inson taqdiri yotganini, uning oilasi, odamlarning dardu tashvishi turganini chuqur his etmayotganimiz tashvishlanarli. Natijada oddiy fuqarolar yuqori idoralarga, xalq vakillariga murojaat qilishga majbur bo'lmoqda. Nima uchun hududning egasi, davlat rahbarining ta'biri bilan aytganda, "Prezident vakili" bor joyda, hokimlikka tegishli masalalarda shu hudud fuqarolari boshqa idoralarga murojaat qilishi kerak?

Prezidentimiz topshirig'iga ko'ra, ijro intizomiga Hisob palatasi mas'ul etib belgilanayotgani kimgadir qo'shimcha vakolat berish emas, majburiy chora deb qaralmog'i lozim. Xalq qabulxonalariga viloyat va tuman hokimining o'zi rahbarlik qilishi, ular har kuni ishini aholi dardi va tashvishini eshitishdan boshlashi, murojaatni boshqa idoraga yubormasdan, shu joyning o'zida hal qilishi kerakligiga berilayotgan urg'u hokimlik

institutini takomillashtirishga, xalqning ularga bo'lgan ishonchini yanada oshirishga xizmat qilishi aniq.

Bundan buyon hokim qaysi yo'nalishlar bo'yicha o'rinbosari bo'lishini hududning rivojlanish rejasiga qarab o'zi belgilaydi. Hokim o'rinbosariga aniq vazifalar yuklatilib, har bir vazifa va funktsiyasi mablag' bilan mustahkamlanadi. Yana bir yangilik – hokimlarga 9 ta idoraning shtatlarini taqsimlash, xodimlarni ishga qabul qilish va lavozimdan ozod etish bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolati berilmoqda.

Bu kabi tizimli islohotlarning hokimlarga berilayotgani yaxshi imkoniyat, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun qo'llash kerak bo'lgan muhim dastak, deb ishonamiz. Imkoniyatdan foydalanish uchun esa bor salohiyatni ishga solmoq talab etiladi.

**To'ychi YOQUBOV,**  
Oliy Majlis Qonunchilik  
palatasi deputati.

## BUXORO tomonlarda

## Issiqlik ta'minotida endi muammo bo'lmaydi

"Buxoroenergomarkaz" aksiyadorlik jamiyati tomonidan 202 ta ko'p qavatli uy hamda 32 ta ijtimoiy soha obyektida individual issiqlik punktlari o'rnatildi. 5,5 kilometr uzunlikdagi magistral suv quvurlari zamonaviysiga almashirildi.

Bu yumush mamlakatimiz hamda Jahon bankining "Andijon, Chirchiq, Buxoro va Samarqand shaharlarida markazlashtirilgan issiqlik ta'minoti tizimini rekonstruksiya qilish va energiya samaradorligini oshirish" qo'shma loyihasi doirasida bajarildi. Loyihaning so'nggi bosqichida esa to'rtta zamonaviy isitish qozoni o'rnatildi.

Yirik loyiha sharofati bilan xizmat sifati oshishi, "Buxoroenergomarkaz" bilan iste'molchi o'rtasidagi anglashilmovchiliklar barham topishi kutilyapti. Chunki ilgari, xususan, qishki mavsumda xizmat sifatidan norozilar ko'p uchrardi.

Qo'shma loyiha tabiiy gaz sarfini yiliga 30, elektr energiyasini 25, ichimlik suvini esa 60 foizga tejash imkonini beradi.

## Yangi aeroportga ravn yo'l orqali



Buxoro tumani hududida yangi xalqaro aeroport qurilmoqda. Umumiy qiymati 226 mln. AQSH dollariga teng loyiha amalga oshgach, soatiga 1 200 nafar yo'lovchiga xizmat ko'rsatish quvvatiga ega bo'ladi. Bu hozir faoliyat ko'rsatib turgan "Buxoro" aeroporti imkoniyatidan uch baravar ko'p.

Tabiiyki, yangi havo bandargohi zamonaviy infratuzilmasi bilan ham ajralib turadi. Bu, avvalo, aeroportga eltadigan yo'lga bog'liq. Shundan kelib chiqqan holda 33 kilometr masofada avtomobil yo'li barpo etilmoqda. Bu yumushni "Romitan tuman yo'llardan muntazam foydalanish" davlat korxonasi jamoasi risoladagidek bajaryapti. Obyektida zamonaviy texnika vositalari yordamida yo'l asosini tayyorlash, shag'al to'kish, tekislash, tuproqni tig'izlash ishlari amalga oshirilmoqda.

## "Ochiq kutubxona" – mutolaa uchun qulay



Yozgi ta'limni jahon va o'zbek adabiyotining sara asarlarini mutolaa qilish bilan yanada maroqli o'tkazish mumkin. Shu maqsadda G'ijduvon tumanidagi 24-umumta'lim maktab jamoasi "Ochiq kutubxona" tashkil etdi.

Hozircha javondan 150 ta badiiy kitob o'rin olgan. Ularni o'g'il-qizlar kelib o'qigani olib ketadi. Faqat kichik bir sharti bor: kitob albatta qaytarilishi kerak. Kitobxonlarga "Ochiq kutubxona"ni boyitish ham tavsiya qilinmoqda. Demak, xohlagan kishi bu yerga kitob hadya etishi ham mumkin.

Javoningidagi kitoblarni boshqalarga, ayniqsa, yoshlarga ilinish zamirida katta hikmat bor, – deydi viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi matbuot xizmati rahbari Iroda Orpova. – Chunki kitob kishi hayotini yaxshi tomonga o'zgartirib, dunyoqarashini kengaytiradi, aql-idrokini charxlaydi. G'ijduvondagi 24-maktab jamoasi tashabbusiga kelsak, uni omallashtirish foydadan xoli emas.

**Istam IBROHIMOV**  
("Xalq so'zi").

# NAZARIYA VA AMALIYOT UYG'UNLIGI BITIRUVCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI YUKSALTIRADI

Keyingi yillarda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tibbiyot sohasini, xususan, tibbiy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va zamonaviy talablarga moslashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

## Tibbiyot

Prezidentimizning tegishli qaroriga muvofiq Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti va Toshkent davlat stomatologiya instituti negizida Toshkent davlat tibbiyot universiteti tashkil etildi. Bu qaror nafaqat tibbiyot oliy ta'lim muassasalarini bir-biriga mazmunan bog'lash, balki ulardagi mavjud resurslar – unikal kampuslar, zamonaviy infratuzilma, ilmiy va pedagogik salohiyat, ilmiy maktablarni yiriklashtirish orqali xalqaro standartlarga javob beradigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga qaratilgan muhim qadam bo'ldi.

Xohlaymizmi-yo'qmi, zarur shart-sharoit va qulayliklar har qanday soha rivojiga, qolaversa, kadrlar salohiyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Xuddi shunday tibbiyot sohasida ham. Kadrlar haqida gap ketganda esa bu juda muhim.

Shu ma'noda, bugun tibbiy ta'limni rivojlantirish, zamonaviy talablarga javob beradigan yuqori malakali va amaliy kompetensiyalarga ega bo'lgan yangi avlod tibbiyot kadrlarini tayyorlash uchun qulayliklar mavjud.

Zamonaviy o'quv auditoriyalari, robot-simulyatorlar va fantomlar bilan jihozlangan o'quv-simulyatsiya markazlari, yuqori texnologik asbob-uskunalariga ega o'quv hamda

ilmiy laboratoriyalari, elektron ta'lim platformalari va ilg'or xorijiy tajribalarga asoslangan o'quv dasturlari va ta'lim texnologiyalari tibbiyot oliygo'harlari talabalariga yuqori sifatli bilim olish imkonini beradi.

Shuningdek, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, ilg'or pedagogik usullar hamda xalqaro ta'lim standartlari keng qo'llanilishi ushbu yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarini bitiruvchilarni nafaqat yurtimizda, balki dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishini ta'minlaydi.

Islohotlar natijasi sifatida poxtaximizda o'tkazilgan "Bitiruvchi – 2025" tantanali marosimi O'zbekiston tibbiy ta'limi tarixida muhim voqea bo'ldi. Mazkur tadbirida tibbiy ta'limning 14 ta yo'nalishi bo'yicha o'qishni bitirgan 4 ming nafarga yaqin bitiruvchi yoshlar tibbiyot xodimi qasamyodini qabul qilib, sog'liqni saqlashning birlamchi tizimida xizmat qilishga bel bog'lashmoqda.

Bu yilgi bitiruvchilar nafaqat nazariy kasbiy bilim, balki informatsion texnologiya, profilaktik tibbiyot, tibbiy sug'urta, ilmiy-amaliy bilim va keng ko'lamli zamonaviy kompetensiyalarga ega tibbiyotning xalqaro standartlari talablariga javob beradigan, aholi salomatligini muhofaza qilishga tayyor mutaxassislar sifatida sog'liqni saqlash tizimiga qadam qo'yimoqda. Zero, bugun tibbiyot



Akmal MUHAMMADOV olgan surat.

xodimi elektron tibbiy xarita yuritish, telemeditsina va boshqa raqamli platformalardan foydalanish kabi zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega, aholi salomatligini muhofaza qilishda kasalliklarning oldini olish, to'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bo'yicha bilimlar bilan qurollangan, tibbiy sug'urta tizimining zamonaviy talablarini o'rganib, aholiga xizmat ko'rsatishda undan foydalanish, tibbiyot sohasidagi dolzarb muammolarning yechimi qaratilgan tadqiqotlar olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi.

Toshkent davlat tibbiyot universitetining ta'lim jarayonida talabalarida ana shunday bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi. Universitet ta'lim dasturlari xorijlik ekspertlarni jalb qilgan holda

takomillashtirilib, xalqaro tibbiy ta'lim standartlariga moslashtirildi. Bunda kompetensiyalarga asoslangan ta'lim tizimiga ustuvorlik berilgan.

Talabalar nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko'nikmalarni egallashga, innovatsion texnologiyalardan foydalanishga va tibbiyot sohasidagi dolzarb muammolarga yechim topishga o'rgatiladi. Ularning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun zamonaviy o'quv-simulyatsiya markazlari va yuqori texnologiyali o'quv laboratoriyalaridan foydalanadi. Ular yordamida talabalar ta'lim jarayonida real tibbiy vaziyatlarni modelashirish orqali tashxis qo'yish, davolash, kasalliklarning oldini olish va bemorlar bilan muloqot qilish ko'nikmalarini egallaydi.

Shuningdek, mazkur bitiruvchilar bir yil davomida o'zining doimiy yashash hududida joylashgan

birlamchi tibbiyot muassasalarida amaliyot o'tadi. Ushbu amaliyot davomida ular muhim tajriba orttirib, o'zining nazariy bilimlarini real klinik amaliyotda qo'llash, bemorlar bilan muloqot qilish, zamonaviy tashxis usullaridan foydalanish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egalladi. Ushbu tizim talabalariga ta'limni amaliyot bilan birga olib borish imkoniyatini yaratadi.

Bundan tashqari, universitetimiz mamlakatimizning yetakchi tibbiyot markazlari, klinikalari va muassasalar bilan yaqin hamkorlikda ishlab, o'z klinik amaliyot bazalariga ega. Ularda olib boriladigan mashg'ulotlar talabalariga amaliy tajriba orttirish, zamonaviy tibbiy uskunalar bilan ishlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va tibbiy jarayonlarni chuqur o'rganish imkonini beradi. Nazariya hamda amaliyotning bunday uyg'unligi bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini yuksaltiradi va ularni sog'liqni saqlash tizimida mustaqil faoliyat yuritishga tayyorlaydi.

Endi ular o'z kasbiy salohiyatini ham nazariy, ham amaliy jihatdan mustahkamlagan, yangiliklarni o'zlashtirishga tayyor, kreativ hamda mustaqil fikrlaydigan, tibbiyot sohasida oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomga ega, nafaqat yurtimizda, balki xalqaro mehnat bozorida ham yuqori talabga ega bo'la oladigan yangi avlod mutaxassislari bo'lib shakllandi.

**Shuhrat BOYMURODOV,**  
Toshkent davlat tibbiyot universiteti rektori.



## xabarlar

### Diyora Keldiyorova – IJF Atletlar komissiyasi a'zoligiga nomzod

Vengriya poytaxti Budapesht shahrida davom etayotgan jahon chempionati doirasida Xalqaro dzyudo federatsiyasi (IJF) Atletlar komissiyasi a'zoligi uchun saylov o'tkazilishini e'lon qildi.



E'tiborlisi, nomzodlar qatorida "Parij – 2024" Olimpiya o'yinlari g'olibi, ham yurtimiz Diyora Keldiyorova nomi ham qayd etilgan bo'lib, u Darya Bilodid (Ukraina), Ryonosuke Haga (Yaponiya), Natan Kas (Avstraliya) va Keytlin Kuadros (Braziliya) bilan

Atletlar komissiyasi a'zoligi uchun kurash olib boradi. Shu kunlarda saylov jarayoni boshlangan bo'lib, akkreditatsiyadan o'tgan mutaxassis va komissiya a'zolari nomzodlarga ovoz bermoqda. Saylov natijalari chempionat yakunida e'lon qilinadi.

### Stol tennisi: qit'a birinchiligiga sanoqli kunlar qoldi

Toshkent shahri stol tennisi bo'yicha yana bir xalqaro turnirga mezbonlik qiladi.



Gap shunday, 26-iyun – 2-iyul kunlari "Humo arena" da "U15" va "U19" yoshli sportchilar o'rtasidagi Osiyo

chempionati tashkil etiladi. Mazkur turnirda Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Hindiston, Eron, Qozog'iston kabi 22 davlatdan 400 nafardan ortiq yosh stol tennisi ustalari bahs olib boradi.

Ayni paytda sportchilarimiz bahslarga qizg'in hozirlik ko'rmoqda.

### Qilichbozlik: Fernanda Errera – Osiyo chempionati sovrindori

Indoneziyaning Bali shahrida qilichbozlik bo'yicha Osiyo chempionati o'tkazilmoqda. Kecha O'zbekiston terma jamoasi musobaqadagi dastlabki medalni qo'lga kiritdi.



Ayollar o'rtasida sabliya dasturida kechgan bellashuvlarda ham yurtimiz Fernanda Errera bronza medali sohibiga aylandi. Sportchimiz final yig'irilgan paytda Errera ajoyib kambek amalga oshirib, yakunda 15:14 hisobida g'alabani ilib ketdi.

bida imkoniyatni boy berdi. Qayd etish joizki, qozog'istonlik Aygerim Saribay bilan kechgan chorak final bellashuvida 8:14 hisobi qayd etilayotgan paytda Errera ajoyib kambek amalga oshirib, yakunda 15:14 hisobida g'alabani ilib ketdi.

"Xalq so'zi".

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektorati va mehnat jamoasi institutning Shoshilinch pediatriya, halokat tibbiyoti kafedrasini mudiri, professor Alisher Sharipovga onasi **Bashorat aya SHARIPOVA**ning vafoti munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor etadi.

### O'ZBEKISTON ELCHIXONASI MAXSUS MUKOFOT BILAN TAQDIRLANDI

Malayziya xalqaro islom universiteti qoshidagi Islom tafakkuri va sivilizatsiyasi institutida yoshlarga ta'lim berish, ilmiy ishlarni amalga oshirish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga hissa qo'shgan bir guruh xodimlar va hamkorlarni taqdirlash – "Takrim 2025" marosimi bo'lib o'tdi.

#### Biz va jahon



E'tiborlisi, mamlakatimizning Malayziyadagi elchixonasi xalqaro sheriklikni rivojlantirish va institut tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyatni qo'llab-quvvatlashga qo'shayotgan hissasi uchun mazkur muassasaning "Maxsus e'tirof" mukofoti bilan taqdirlandi.

Marosimda so'zga chiqqan institut direktori, professor Abdulaziz Bergut O'zbekiston elchixonasining hamkorlar bilan o'zaro aloqalarni rivojlantirishdagi yaqin ko'magini e'tirof etar ekan, jumladan, shunday dedi: "Elchixonam tomonidan ko'rsatilayotgan ko'mak tufayli institut jamoasi O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari bilan yaqin aloqalarni o'rnatishga muvaffaq bo'ldi va bu jarayon faol davom etmoqda. Shuningdek, hamkorlik natijasi o'laroq O'zbekiston tuprog'ida tug'ilib o'sgan buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy qalamiga mansub astronomiyaga oid 1197-yilda ko'chirilgan "Al-Tafhim" asarining qadimgi qo'lyozmasining faxsilmi

nusxasini O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi kutubxonasiga taqdim etdik".

Bundan tashqari, O'zbekiston Prezidentining joriy yil fevral oyida Malayziyaga oliy darajadagi tashrifi davomida har ikki mamlakat oliy o'quv yurtlari o'rtasida 50 dan ortiq o'zaro hamkorlik hujjatlarining imzolangan, tomonlar o'rtasida ta'lim sohasidagi aloqalarni rivojlantirishga yuqori istak mavjudligini ko'rsatgani ta'kidlandi. Xorijlik olim mazkur hujjatlar, albatta, amaliyotga tatbiq etilishi va hamkorlikni yanada yuqori pog'onaga olib chiqishiga ishonch bildirmoqda.

Ma'lumot o'rinda aytish joizki, Xalqaro islom tafakkuri va sivilizatsiyasi instituti 1987-yilda Malayziya xalqaro islom universiteti qoshida aspirantura ilmiy-o'quv muassasasi sifatida tashkil etilgan. Unda islom sivilizatsiyasiga bag'ishlangan qiyosiy va madaniy tadqiqotlar olib borilib, malakali ilmiy xodimlar tayyorlanadi.

"Dunyo" AA. Kuala-Lumpur

### MAKTABDAN TASHQARI TA'LIM

#### BOLALARDA HUNAR EGALLASH TUYG'USINI SHAKLLANTIRADI

O'lkamizda har kuni quyosh kulgan, haroratli yoz fasli boshlandi. Bu faslda o'quv yilini yakunlab maktabdan ta'tilga chiqqan bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish dolzarb masalalardan biriga aylanadi.

#### Yozgi ta'til – 2025

To'g'ri, bu paytda hamma o'g'il-qizlar ham bo'sh qolmaydi. Ularning aksariyati yozgi dam olish maskanlariga ketishsa, ba'zilar umumta'lim muassasalarida tashkil etilgan kunduzgi oromgohlar va maydonchalarga qatnaydi. Yana kimdir yurtimizning tog'li hududlarida, so'lim go'shalarida yashaydigan qarindoshlari, yaqinlarinikida ta'til kunlarini maroqli o'tkazadi.

Lekin yozda na mehmonga, na oromgohlarga boradigan yoshlar ham ko'p. Ular bo'sh vaqtdan unumli foydalanib, bilim va mahoratlarini yanada boyitishni, qiziqishlariga mos mashg'ulotlar bilan shug'ullanishni istashadi. Mana shunday o'g'il-qizlarga mamlakatimizning barcha hududida faoliyat yuritayotgan "Barkamol avlod" bolalar maktablari qo'l keladi.

Prezidentimizning 2019-yil 30-sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq tashkil etilgan "Barkamol avlod" bolalar maktablari hozirgi kunda maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini yanada oshirish, o'quvchi yoshlarida yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol topirish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishiga ko'maklashish, kasb-hunarga yo'naltirish orqali mustaqil hayotga tayyorlash, intellektual barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida shu yil 15-may kuni maktab ta'limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan uyushtirilgan videoselektor yig'ilishida yozgi ta'til davrida o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish chora-tadbirlari

ham belgilandi. Mutasaddilarga o'g'il-qizlarni yozda oromgohlar va foydali mashg'ulotlarga jalb etish, sport musobaqalari, intellektual o'yinlar va san'at kechalari tashkil qilish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Bo'ka tumanidagi "Barkamol avlod" bolalar maktabida ham hozirgi kunda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 1-iyundan 30-avgustgacha "Dolzarb 90 kunlik" e'lon qilinib, maktab o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ularni sog'lomlashtirish va har tomonlama rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlar ko'riyapti.

O'quvchilarning zamonaviy bilimlarni egallashlari uchun maktabda robototexnika, mental arifmetika, sport, san'at, art dizayn, axborot texnologiyalari, hunarmandchilik va qo'l mehnati, turizm va ekologiya, oliy ta'lim muassasalari va maktabga tayyorlov, xorijiy tillar bo'yicha to'garaklar ochilgan. STEAM (Science – tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – muhandislik, Art – san'at, Mathematics – matematika) ta'lim dasturi to'garaklar mazmuniga singdirilgan.

Bu yerda kelajagimiz egalari nafaqat maktabda olgan bilimlarini yanada mustahkamlamoqda, balki iste'dodi, qobiliyatlarini charxlab, ijtimoiy ko'nikmalarini ham yuksaltiryapti.

Globallashtan bugungi dunyoda ongu qalbg'a qaratilgan g'oyaviy tahdidlar makon va zamon chegaralari bemalol oshib o'tmoqda. Har birimizning ko'nglimizga, shuurimizga xuruj qilmoqda. "Yoshlarning bo'sh vaqti – dushmanning ish vaqti" degan gap bejiz emas. Chirkin maqsadli kuchlar murg'ak qalb

### Toshkent shahridagi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab axborot texnologiyalari yo'nalishi bo'yicha tayanch maktab etib belgilandi.

**Xalq so'zi**  
**Narodnoe slovo**

**MUASSISLAR:**  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

**Bosh muharrir O'tkir RAHMAT**

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-642. 13 107 nusxada bosildi. Hajmi – 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

**TELEFONLAR:**  
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohnani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terilishi hamda operator M. Begumarov tomonidan sahilalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

**MANZILIMIZ:**  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbatchi muharrir S. Mamirov.  
Musahih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonamanzili:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 22.00 Topshirildi – 00.55

1 2 3 4 5 6